



UDK 303.01

*Gulhayo SAYDAXMEDOVA,*  
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi*  
*E-mail: gulixonsaydaxmedov@gmail.com*

*PhD, dotsent X.Bakirova taqrizi asosida*

### UMUMIY O‘RTA TALIM MAKTAB O‘QUVCHILARINI JARAYONGA ASOSLANGAN YONDASHUV ASODIDA YOZUV KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH (5-6 SINFLAR MISOLIDA)

Annotsatsiya

Mazkur maqola umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-6-sinf o‘quvchilarida yozuv ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning zamonaviy metodlaridan biri bo‘lgan jarayonga asoslangan yondashuvni o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda yozuv faoliyati yakuniy mahsulot sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq va izchil bosqichlardan iborat murakkab jarayon sifatida talqin etiladi. Xususan, yozuvning tayyorgarlik (g‘oya yig‘ish), rejalashtirish, dastlabki matn yaratish, tahrirlash, qayta ishlash va yakuniy variantni shakllantirish bosqichlarining har biri o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishdagi o‘rni nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilinadi. Maqolada jarayonga asoslangan yondashuvning afzalliklari an‘anaviy, natijaga yo‘naltirilgan usullar bilan qiyosiy tahlil qilinib, uning o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy izchillik, matn tuzish madaniyati hamda ijodiy yondashuvni rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** jarayonga asoslangan yondashuv, yozuv ko‘nikmasi, yozma nutq, yozuv jarayoni, tahrirlash, rejalashtirish, ijodiy fikrlash, interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, o‘quvchi faolligi, metodika.

### DEVELOPING WRITING SKILLS OF SECONDARY SCHOOL STUDENTS THROUGH A PROCESS-BASED APPROACH (ON THE EXAMPLE OF GRADES 5–6)

Annotation

This article is devoted to the study of a process-based approach as one of the modern methods for developing and improving writing skills among students in grades 5–6 of general secondary schools. In the study, writing activity is interpreted not as a final product, but as a complex process consisting of interrelated and sequential stages. In particular, the stages of writing—prewriting (idea generation), planning, drafting, editing, revising, and producing the final version—are analyzed in detail from the perspective of their role in developing students’ written speech. The article comparatively examines the advantages of the process-based approach over traditional product-oriented methods and substantiates its importance in developing students’ independent thinking, logical coherence, text construction skills, and creative abilities.

**Keywords:** process-based approach, writing skills, written speech, writing process, editing, planning, creative thinking, interactive methods, competency-based approach, student engagement, methodology.

### РАЗВИТИЕ ПИСЬМЕННЫХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ НА ОСНОВЕ ПРОЦЕССНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА (НА ПРИМЕРЕ 5–6 КЛАССОВ)

Аннотация

Данная статья посвящена изучению процессно-ориентированного подхода как одного из современных методов формирования и развития письменных навыков у учащихся 5–6 классов общеобразовательных школ. В исследовании письменная деятельность рассматривается не как конечный продукт, а как сложный процесс, состоящий из взаимосвязанных и последовательных этапов. В частности, подробно анализируются этапы письма – предписьменная подготовка (генерация идей), планирование, создание чернового варианта текста, редактирование, переработка и формирование окончательного варианта – с точки зрения их роли в развитии письменной речи учащихся. В статье проводится сравнительный анализ преимуществ процессно-ориентированного подхода по сравнению с традиционными, ориентированными на результат методами, а также обосновывается его значение в развитии самостоятельного мышления учащихся, логической последовательности, навыков построения текста и творческих способностей.

**Ключевые слова:** процессно-ориентированный подход, письменные навыки, письменная речь, процесс письма, редактирование, планирование, творческое мышление, интерактивные методы, компетентностный подход, активность учащихся, методика.

**Kirish.** Hozirgi ta‘lim tizimida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini, xususan yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Yozuv nafaqat til o‘rganishning muhim qismi, balki mustaqil fikrlash, mantiqiy izchillik va aniq ifodalashni rivojlantiruvchi asosiy vositadir. An‘anaviy yondashuvda yozuv ko‘proq yakuniy mahsulot sifatida baholanadi, bu esa yozish jarayonining bosqichlarini (g‘oya yaratish, rejalashtirish, tahrirlash) yetarlicha hisobga olmaydi va o‘quvchilarda passiv yondashuvni shakllantiradi. Zamonaviy pedagogikada esa

yo‘zuv jarayon sifatida o‘rgatiladi. U g‘oya yaratish, rejalashtirish, yozish, tahrirlash va qayta yozish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini, shuningdek hamkorlik va o‘zaro tahrirlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Maqolaning maqsadi 5-6-sinf o‘quvchilarida jarayonga asoslangan yondashuv orqali yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirish samaradorligini tahlil qilish va uning metodik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili** Yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish til o‘qitish metodikasida keng

o'rganilgan yo'nalishlardan biridir. So'nggi yillarda yozuvni o'qitishda an'anaviy yondashuvdan jarayon (process-based writing) yondashuviga o'tish muhim ahamiyat kasb etmoqda. K.Hyland yozuvni murakkab kognitiv va ijtimoiy jarayon sifatida izohlaydi: u g'oya ishlab chiqish, auditoriyani hisobga olish va matnini qayta ishlash bosqichlarini o'z ichiga oladi. S.Graham va D.Perin meta-tahlillariga ko'ra, rejalashtirish, tahrirlash va qayta yozish kabi strategiyalar yozma nutq sifatini sezilarli oshiradi. Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yozuv jarayon sifatida o'rgatilganda o'quvchilarning lingvistik, kognitiv va kommunikativ kompetensiyalari samarali rivojlanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot umumiy o'рта ta'lim maktablarining 5-6-sinf o'quvchilarida yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda jarayonga asoslangan yondashuvning samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, pedagogik eksperiment asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti umumiy o'рта ta'lim maktablarida chet tili darslarida yozma nutqni o'qitish jarayoni hisoblanadi. Tadqiqot predmeti esa 5-6-sinf o'quvchilarining yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda jarayonga asoslangan yondashuvni qo'llashning metodik asoslari, mazmuni va samaradorligini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Tadqiqotning maqsadi jarayonga asoslangan yozuv yondashuvining o'quvchilarning yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi samaradorligini ilmiy asoslash hamda uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etishning metodik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

1. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

2. O'qitish muammosiga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish;

3. Jarayonga asoslangan yondashuvning nazariy asoslarini aniqlash;

4. 5-6-sinf o'quvchilarining yozuv ko'nikmalari darajasini diagnostika qilish;

5. Jarayon yondashuvi asosida yozuv mashg'ulotlari tizimini ishlab chiqish;

6. Tajriba-sinov ishlari orqali yondashuv samaradorligini aniqlash va tahlil qilish.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-pedagogik usullardan foydalanildi: Nazariy tahlil va umumlashtirish, pedagogik kuzatish; diagnostik test va yozma ishlarni tahlil qilish, so'rovnomma va suhbat, pedagogik eksperiment, statistik tahlil va natijalarni solishtirish.

Tadqiqot bazasi

Tadqiqot umumiy o'рта ta'lim maktablarining 5-6-sinflarida amalga oshirildi. Tadqiqotda tajriba va nazorat 1-Jadval

Interaktiv metod	Mos raqamli platforma	Platforma havolasi	Kutilayotgan natija
Process-based Writing Tasks	Google Docs, Microsoft Word	<a href="https://docs.google.com">https://docs.google.com</a> <a href="https://www.microsoft.com/word">https://www.microsoft.com/word</a>	Yozuv jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish, hamkorlikda ishlash
Gamification in Writing	Kahoot!, Quizizz, LearningApps	<a href="https://kahoot.com">https://kahoot.com</a> <a href="https://quizizz.com">https://quizizz.com</a> <a href="https://learningapps.org">https://learningapps.org</a>	Motivatsiya oshadi, yozishga qiziqish kuchayadi
Peer Review with AI Assistance	ChatGPT, Grammarly	<a href="https://chat.openai.com">https://chat.openai.com</a> <a href="https://www.grammarly.com">https://www.grammarly.com</a>	Tanqidiy fikrlash, o'zaro baholash va yozuv sifatini yaxshilash
Digital Storytelling	Canva, Storybird	<a href="https://www.canva.com">https://www.canva.com</a> <a href="https://storybird.com">https://storybird.com</a>	Ijodiy yozish va vizual fikrlash rivojlanadi
Blogging and Reflective Writing	WordPress, Blogger	<a href="https://wordpress.com">https://wordpress.com</a> <a href="https://www.blogger.com">https://www.blogger.com</a>	Mustaqil yozish va o'z fikrini erkin ifodalash ko'nikmasi
Corpus-based Writing Support	Sketch Engine, AntConc	<a href="https://www.sketchengine.eu">https://www.sketchengine.eu</a> <a href="https://www.laurenceanthony.net/software/antconc/">https://www.laurenceanthony.net/software/antconc/</a>	Til birliklaridan to'g'ri foydalanish, yozuv aniqligi
Collaborative Writing Projects	Padlet, Miro	<a href="https://padlet.com">https://padlet.com</a> <a href="https://miro.com">https://miro.com</a>	Jamoadam yozish, fikr almashish va muhokama ko'nikmasi

**Tahlil va natijalar.** Mazkur tadqiqotda jarayonga asoslangan yozuvni o'rgatishning integrativ yondashuvi amaliy jihatdan samarali ekanligi aniqlandi. Unda til kompetensiyalari, yozuv bosqichlari (rejalashtirish, yozish, tahrirlash, tekshirish) va

guruhlari tashkil etilib, yozuv topshiriqlari ikki xil yondashuv asosida olib borildi: an'anaviy (natijaga yo'naltirilgan) va jarayonga asoslangan yondashuv.

Tadqiqot bosqichlari. Tadqiqot quyidagi 3 bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Tayyorgarlik bosqichi – mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi, diagnostik topshiriqlar ishlab chiqildi va boshlang'ich daraja aniqlandi.

2. Tajriba bosqichi – jarayonga asoslangan yozuv yondashuvi asosida dars mashg'ulotlari tashkil etildi (g'oya yaratish, rejalashtirish, yozish, tahrirlash va qayta ishlash).

3. Yakuniy bosqich – tajriba va nazorat guruhlari natijalari taqqoslandi, statistik va sifat jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy yangiligi 5-6-sinf o'quvchilari uchun yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda jarayonga asoslangan yondashuvni bosqichma-bosqich metodik tizim sifatida asoslashda namoyon bo'ladi.

Amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar va mashg'ulotlar tizimi umumiy o'рта ta'lim maktablarida yozuvni o'qitish jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi (1-rasmga qarang).

Til tayyorgarligi (so'z boyligi, grammatika, gap tuzish)

Yozuv jarayoni bosqichlari (rejalashtirish, yozish, tahrirlash, tekshirish)

Axborot texnologiyalari (onlayn vositalar, platformalar)

Amaliy mashg'ulotlar (insho, hikoya, kundalik)

Mustaqil ishlash (matn tahlili, qayta yozish)

Natija: Mustaqil, mantiqiy va ijodiy yozuvchi o'quvchi

1 – rasm. Jarayonga asoslangan yozuvni o'rgatish (integrativ yondashuv)

Jarayonga asoslangan yozuvni o'rgatishning integrativ yondashuvi o'quv faoliyatini aniq natijaga yo'naltiradi. Unda yozuv ko'nikmalari rejalashtirish, yozish, tahrirlash va tekshirish bosqichlari orqali bosqichma-bosqich rivojlantiriladi. Shuningdek, til tayyorgarligi (so'z boyligi, grammatika, gap tuzish), yozuv jarayoni va axborot texnologiyalari integratsiya qilinadi. Bu o'quvchini faqat to'g'ri yozishga emas, balki fikrni mantiqiy va izchil ifodalashga ham o'rgatadi. Konstruktivistik yondashuv asosida o'quvchilar mustaqil izlanish, matn ustida ishlash va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Insho, hikoya, kundalik yozish kabi amaliy mashg'ulotlar va mustaqil tahlil jarayoni bilimlarni mustahkamlaydi. Natijada o'quvchilar zamonaviy texnologiyalar yordamida mustaqil, mantiqiy va ijodiy yozma nutq yaratishga tayyor bo'ladilar (1-jadvalga qarang).

rivojlantiradi. Shuningdek, insho, hikoya va kundalik yozish kabi amaliy topshiriqlar orqali o'quvchilar fikrini erkin ifodalash, matnни tahlil qilish va qayta ishlash kompetensiyalarini mustahkamladi. Umuman olganda, integrativ yondashuv o'quvchilarda mantiqiy, izchil va ijodiy yozma nutqni shakllantirishda samarali metod ekanligi tasdiqlandi. Simulation-based Writing Tasks

Ushbu metod konstruktivizm va Task-Based Learning nazariyalariga asoslanib, o'quvchilarni real hayotga yaqin yozuv vazifalarini bajarishga yo'naltiradi. Jarayon rejalashtirish → yozish → tahrirlash → tekshirish → yakuniy variant bosqichlarida amalga oshiriladi. Google Docs, Microsoft Word, Trello va Asana kabi platformalar jarayonni tashkil etishda qo'llaniladi. Natijada o'quvchilarda mustaqil yozish, vaqtni boshqarish va ijodiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi. Dastlab platformalarni o'rganish uchun qisqa trening talab qilinishi mumkin.

Gamification in Writing Tasks – yozuvni o'rgatishda innovatsion yondashuv bo'lib, u motivatsion pedagogika va Self-Determination Theory ga asoslanadi. Bu nazariya ichki (qiziqish) va tashqi (mukofot) motivatsiyani uyg'unlashtirishni ko'zda tutadi. Ushbu metodda yozuv jarayoni bosqichma-bosqich "missiya" shaklida tashkil etiladi: g'oya → reja → yozish → tahrirlash → yakuniy variant. Classcraft, Kahoot! Quizizz, LearningApps va Quizlet kabi platformalar orqali o'quvchilar ball va badge bilan rag'batlantiriladi.

**3. Peer review with AI assistance** kollaborativ ta'lim va metakognitiv yondashuvga asoslangan metod bo'lib, o'quvchilar bir-birining ishini tahlil qilish orqali yozuv, o'qish va fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu yondashuv yozuvni bosqichma-bosqich jarayon sifatida o'rganishga yordam beradi. ChatGPT va DeepL Write kabi AI vositalari grammatik xatolarni tuzatish, uslubni yaxshilash va fikrni aniq ifodalashda yordam beradi. Natijada o'quvchilar mustaqil o'rganadi va yozuv ko'nikmalari rivojlanadi. Kamchiligi – AI har doim ham to'g'ri natija bermaydi, shuning uchun inson nazorati zarur.

**4. Live Multilingual Subtitling Peer Review with AI Assistance-** kollaborativ ta'lim va metakognitiv yondashuvga asoslangan metod bo'lib, o'quvchilar yozuvni bosqichma-bosqich jarayon sifatida o'rganadi (g'oya → reja → yozish → tahrirlash). Jarayonda ChatGPT va DeepL Write kabi AI vositalari matnни tahlil qilish, grammatik va uslubiy jihatdan yaxshilashga yordam beradi, yakunda esa o'qituvchi umumiy xulosa beradi. Natijada o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mustaqil tahlil va hamkorlik ko'nikmalari rivojlanadi.

**5. Corpus-based problem solving yondashuvi** asosida yozuv ko'nikmasini rivojlantirish - Data-Driven Learning va analitik tilshunoslikka asoslangan metod bo'lib, o'quvchilar tayyor qoidalarni yodlash o'rniga real til materiallari (korpuslar) orqali tilni o'rganadi. Bu yondashuv 5–6-sinflarda so'z boyligini oshirish, to'g'ri ibora tanlash va yozuvni mantiqan boyitishga yordam beradi. Jarayon yozuvning bosqichlari hamda peer review bilan birga olib boriladi. AntConc, Sketch Engine va COCA kabi vositalar yordamida o'quvchilar so'z va iboralarning real kontekstdagi qo'llanishini tahlil qiladi. Natijada o'quvchilar mustaqil tahlil qilish va to'g'ri til birliklarini tanlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

**6. Virtual Reality (VR) Translation Scenarios - Experiential Learning Theory** ga asoslangan metod bo'lib,

o'rganish tajriba → tahlil → umumlashtirish → qo'llash bosqichlari orqali amalga oshadi. VR muhiti o'quvchilarga real hayotga yaqin kommunikativ vaziyatlarda (konferensiya, muzey, uchrashuv) tarjima va yozuv mashqlarini bajarish imkonini beradi. Bu ularning kommunikativ, madaniyatlararo va stress ostida ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mozilla Hubs platformasi orqali foydalanuvchilar brauzer orqali 3D virtual muhitga kirib, boshqa ishtirokchilar bilan real vaqt rejimida muloqot qilishi va hamkorlik qilishi mumkin. Shuningdek, ENGAGE VR virtual sinf va simulyatsiya muhitini yaratib, o'quvchilarga interaktiv tajriba asosida o'rganish imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalari.** Jarayonga asoslangan yondashuv yozuv ko'nikmasini rivojlantirishda ijobiy natija berdi: o'quvchilarning yozma nutqi sezilarli yaxshilandi. Biroq, dastlab rejalashtirish, fikrlarni izchil ifodalash va tahrirlash bosqichlarida qiynchiliklar kuzatildi. Muammolarni bartaraf etish uchun: har bir bosqich bo'yicha aniq yo'riqnoma va namunalar berish, rejalashtirish va tahrirlashni bosqichma-bosqich o'rgatish, qisqa va aniq topshiriqlar berish, doimiy feedback taqdim etish tavsiya etiladi. Xulosa: to'g'ri tashkil etilgan ushbu yondashuv 5–6-sinf o'quvchilarining yozuv ko'nikmasini samarali rivojlantiradi.

Story-Based Writing Challenge (Hikoya asosida yozuv topshirig'i) metodi o'quvchilarning ijodiy yozuv ko'nikmasini rivojlantiradi. Biroq, ayrim o'quvchilar mustaqil matn yaratish va fikrlarni izchil ifodalashda qiynalishi mumkin. Shuningdek, baholashda subyektivlik va kuchsiz o'quvchilarda motivatsiya pasayishi ehtimoli mavjud.

Guided Writing Scaffold (Yo'naltirilgan yozuv tayanchlari) metodi

Mazkur Guided Writing Scaffold metodini qo'llash jarayonida bir qator ijobiy natijalar bilan birga ayrim potensial muammolar ham yuzaga kelishi mumkin. Xususan, o'quvchilar tayanch strukturalarga ortiqcha tayanib qolib, mustaqil fikr yozishda qiynalishlari mumkin. Shuningdek, barcha o'quvchilarning tayanchlar bilan bir xil ishlashi ijodkorlikning cheklanishiga olib kelishi ehtimoli mavjud. Bundan tashqari, o'qituvchi tomonidan tayyorlangan scaffold materiallar ko'p vaqt talab qilishi mumkin.

Virtual Reality (VR) Translation Scenarios Ushbu metodda Mozilla Hubs va ENGAGE VR kabi platformalar orqali o'quvchilar real kommunikativ vaziyatlarga yaqin muhitda yozuv va tarjima ko'nikmalarini rivojlantiradi. Biroq texnik jihozlar yetishmasligi, VR muhitida noqulaylik (motion sickness) va internet muammolari kabi cheklovlar mavjud bo'lishi mumkin. Xulosa: VR texnologiyasi bosqichma-bosqich joriy etilgan va sharoitlar oldindan tayyorlanganda samarali natija beradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, ushbu metodlarni o'quv jarayoniga tatbiq etish 5–6-sinf o'quvchilarida yozuv ko'nikmasini bosqichma-bosqich rivojlantirishga, ya'ni fikrni rejalashtirish, izchil bayon qilish, tahrirlash va qayta ishlash malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, interaktiv va raqamli yondashuvlar o'quvchilarda ijodiy fikrlash, mustaqil yozish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Badger R., White, G. (2000). "A Process Genre Approach to Teaching Writing." ELT Journal.
2. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. Pearson Education, 2015.
3. Hyland K. Second Language Writing. Cambridge University Press, 2019.
4. Richards, J.C., Rodgers, T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2014.